

DUNYODAGI ENG QISQA ASAR...

Yaxyayeva Nigina Ibragim qizi

Buxoro Davlat Universiteti va IIV Buxoro AL

E-mail: nigina.yakhyayeva93@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon adabiyotida o'zining nodir durdonalari bilan o'chmas iz qoldirgan, Nobel mukofoti laureati amerikalik yozuvchi, adib, jurnalist Ernest Hemingueyning qisman hayoti, asarlari mazmuni va badiiyati haqida so'z boradi. U barcha asarlarida o'zining his etganlari, ko'rgan-kechirganlari, boshidan o'tkazganlari, ko'zi bilan guvoh bo'lgan voqealarini qahramonlari hayotida gavdalantirishga harakat qiladi. Bu adib dunyo adabiyotida Joys, Kafka, Kamyu kabi adabiy tasavvur chegaralarini buzganligi, uslubi yoki jamiyat va inson mohiyatiga qo'ygan yangicha tashxisi bilan emas, uslubining oddiy va soddaligi, barcha obrazlarida urush avlodining o'y-kechinmalarini hayotiy tarzda aks ettirgani, qahramonlari o'z davrining badiiy timsollari darajasiga ko'tarila olgani bilan ajralib turadi. Uning ijodiy laboratoriyasi yosh yozuvchilarning ijod, adabiyot va hayot haqidagi tasavvurlarini quvvatlantirdi, kuch va imkoniyat bag'ishladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, qissa, adabiy uslub, qahramon, hayot, tiriklik, matonat.

THE SHORTEST WORK IN THE WORLD...

Yaxyayeva Nigina Ibragim qizi

Academic Lyceum at Bukhara State University and the Ministry of Internal Affairs

E-mail: nigina.yakhyayeva93@gmail.com

Abstract. this article talks about the partial life of the Nobel laureate American writer, writer, journalist Ernest Heminguey, who left an indelible mark in world literature with his rare masterpieces, the content and artistry of his works. In all his works, he tries to embody in the lives of his heroes what he feels, what he sees, what he experiences, what he witnessed through his eyes. This adib is distinguished in world literature by such violations of the boundaries of literary imagination as Joyce, Kafka, Kamyu, not by his style or a new diagnosis of society and the essence of man, by the simplicity and simplicity of his style, the vital reflection of the thoughts of the war generation in all his images, the fact that his heroes were able to rise His creative laboratory energized the imagination of young writers about creativity, literature and life, giving strength and opportunity.

Keywords: literature, short story, literary style, hero, life, vitality, perseverance.

Adabiyot cheksiz xayolot ummonidir. Yozuvchi ushbu ummonning tubidan rango-rang marvaridlar olib, ularga o'z asarlari orqali jon bag'ishlaydi go'yo. Asar yozuvchining eng qiymatli, olmosdanda bebaho, farzandidek suyukli xazinasi hisoblanadi. O'z asarlarini bolaligi-yu, hayotda ko'rgan-kechirganlari bilan boyitib, kitobxonni beixtiyor o'sha xayol ummoniga sho'ng'ishga, qahramonlar taqdiriga xuddi o'z yaqinining taqdiriga kuyingandek xavotir olishga, hayot va tiriklik haqida chuqur mushohada qilishga undaydigan adib – XX asr Amerika adabiyotining yorqin namoyondasi, Nobel mukofoti laureti Ernest Heminguey edi. U o'z davri insonlarining hayot va jamiyat, sevgi va muhabbat, adabiyot va san'at haqidagi tasavvurlariga, e'tiqod va dunyoqarashiga shunchalik katta ta'sir ko'rsatdiki, uning ijodiga, qahramonlariga jahon adabiyotida mushtaragini topish mushkul. O'sha davrda qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar, barchaning muhokamasi, suhbat markazida Heminguey va uning asarlari bo'lgan. Uning turmush tarzi, urush maydonlaridagi, Kuba changalzorlari va Afrika chakalakzorlaridagi sarguzashtlari, jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy tuzumga munosabati, inson va uning mohiyati haqidagi falsafasi, adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lish uchun qilgan sa'y-harakatlari odamlar orasida asarlaridanda mashhurroq edi. Uning uslubi ham qahramonlari kabi oddiy va sodda...

Betakror so'z ustasi, adib, jurnalist Ernest Heminguey 1899-yil 21-iyulda Illinoys shtatining Chikago yaqinidagi Ouk-Park shaharchasida ziyoli oilada dunyoga keladi. Otasi shifokor, onasi esa opera xonandasi

edi. Bolaligini eslarikan, Heminguey musiqaga umuman qiziqmaganini, onasi tomonidan majburan musiqa maktabiga violonchel chalishga qatnaganini, o'sha paytlar bu unga yoqmaganini, lekin musiqa darslari uning keyinchalik ijod olamida o'z foydasini berganini aytardi. Otasi haqidagi xotiralarida u otasini keng fe'lli, tabiatda sayr qilishni, baliq ovlashni xush ko'ruvchi inson bo'lganini eslaydi. Yoshligida otasi unga baliq ovlash uchun qarmoq sovg'a qiladi va kichkina Ernestni o'zi bilan birga baliq ovlariga olib chiqadi. Bu mashg'ulotlar adibga shunchalar huzurbaxsh onlarni taqdim etganki, hattoki mashhur yozuvchi sifatida tanilgan vaqtlari odamlardan qochib tabiat qo'yniga ketib qolgan. Jahon adabiyoti xazinasini boyitadigan asarlar ham o'sha cheksiz ummon bag'rida dunyo yuzini ko'rgan bo'lsa ajab emas. Otasi unga tabiatni tomosha qilishni emas, o'qishni, tabiat bilan inson uyg'unligini his qilishni o'rgatgan. Shu sababdan ham ko'pgina hikoyalarning bosh qahramoni bo'lgan Nik Adams obrazida, yozuvchi otasini gavgaldantirgan aslida. Yozuvchi, adabiyotshunos olim Nazar Eshonqulning so'zlari bilan aytganda, Nik adibning adabiy otasiga aylangan.

Ernest maktab chog'lari boks sporti bilan ham shug'ullanadi. Kubada yashagan yillari mashhur bokschilar bilan ringda jang qiladi. O'zining iborasi bilan aytganda, adabiyot ham uning uchun boks maydoni edi. Umuman olganda hayot uning uchun ring edi. U keyinchalik shunday yozgandi: "Men janob Turgenevni bir necha urinishda yiqitdim. Keyin janob Mopassanni ham, ancha qiyin kechgan bo'lsada, taslim qildim. Janob Stendal bilan ikki marta durang bo'ldik, biroq so'nggi raundda ochkolar hisobiga men g'olib chiqdim. Janob Tolstoy bilan esa ringga chiqishni xayolimga ham keltirmadim". Balki adibning Tolstoyga teng kelolmadim deyishining boisi, Tolstoy asarlari hajmining va mavzulari ko'laminin kengligi bo'lgandir.

Sarguzashtalarni yoqtirgani boisi, maktabni bitirishi bilanoq oliygohga kirishga emas, reportyor-jurnalist bo'lishga oshiqadi, «The Kansas City Star» gazetasida ishlaydi va doimo bu qaroridan hech qachon afsuslanmaganini ta'kidlaydi. Boisi gazeta uni qisqa, lo'nda, aniq yozishga o'rgatadi. Bu esa keyinchalik uning ijodida butun umr asqotadi. Ba'zi bir manbalarda uning bir bahsda: "Men dunyodagi eng qisqa va har bir o'quvchining qalbini larzaga keltira oladigan ta'sirli asarni yarataman" degani haqida ma'lumotlar uchrab turadi. Adib o'z va'dasida turadi va "Bolalar oyoq kiyimchasi sotiladi. Kiyilmagan." degan jummalarni yozadi. Bu so'zlarni o'qigan har qanday insonning xayolida farzandini yo'qotgan va nochorlik tufayli uning hali kiyib ulgurmagani, endi esa keraksiz bo'lib qolgan oyoq kiyimchalarni sotishga majbur bo'lgan ilojisiz ota-ona siymosi gavgaldanadi.

Adibning yoshlik yillari birinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. U ko'ngilli bo'lib urushda qatnashadi va urushning qonli yo'llari, begunoh insonlarning iztirobi, tanasidagi urushdan qolgan jarohatlari uning asarlarida o'zining ta'sirli ifodasini topadi. Uni Nobel mukofotiga sazovor qilgan inson matonati, mag'lubiyati va o'ziga ishonchi haqidagi asari – "Chol va dengiz" qissasi, aynan 2ta jahon urushi, butun dunyoda zo'ravonlik va zulm, inson qadrsizligi hukm surgan paytlarda paydo bo'ldi. Garchi adib: "Men oddiy baliq, oddiy dengiz, oddiy baliqchi va oddiy bola haqida yozdim, menga bir baliqchining boshidan kechgan hodisa haqida, qayig'u dengizda nimalar bo'lganidan tortib uning baliq bilan keskin olishganlarigacha oqizmay-tomizmay hikoya qilib berishgan edi. Shundan keyin men o'zim yildan beri yaxshi biladigan baliqchi og'aynimni ko'z oldimga keltirdim-da, o'zimni uning o'rnida, xuddi o'shanday sharoitda tasavvur qilib ko'rdim. Shu, xolos." degan bo'lsada, adabiyot olamida ushbu asar keng muhokama qilindi va turli tillarga tarjima qilinib, butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Hemingueyni boshqalardan ajratib turadigan xislati, oddiy tilda yozilsa-da minglab kitobxon qalbidan joy oladigan asarlarining boisi, yozuvchining uslubidadir. U barcha asarlarida o'zining his etganlari, ko'rgan-kechirganlari, boshidan o'tkazganlari, ko'zi bilan guvoh bo'lgan voqealarini qahramonlari hayotida gavgaldantirishga harakat qiladi. U ko'rmagan voqealari haqida yozolmasdi. Qisqa qilib aytganda, Hemingueynin asarlari aslida badiiy avtobiografiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Heminguey E. Chol va dengiz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ernest_Hemingway
3. https://uz.zahn-info-portal.de/wiki/Ernest_Hemingway
4. Muhammadjon Xolbekov. Ernest Heminguey hikoyalari. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011 yil, 2-son.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/ernest-heminguey-yoshlar-bilan-suhbat>
6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ernest-xeminguey/>

